



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022-yil 20-yanvar.

Yaypan shahri.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.
2. Loyihaning mazmuni: Yuridik shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha.
3. Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: tuman Madaniyat bo'limi.
4. Loyiha 17.01.2022-yil kuni ishlab chiqilgan va 20.01.2022-yil kuni markazga taqdim etilgan.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston tuman Madaniyat bo'limiga "O'zbektelekom" AK Farg'ona filiali tomonidan 2022-yil 1-choragi davomida tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi 50 000 (ellik ming) so'mdan bo'lgan, umumiy qiymati 150 000 (bir yuz ellik ming) so'mni tashkil etuvchi telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish yuzasidan ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018-yil kungi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 4-bandida telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.


Yuqorida bayon etilganlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2021-yil kungi PQ-5168 sonli qaroriga qo'llanib,-

X U L O S A

O'zbekiston tuman Madaniyat bo'limi tomonidan taqdim etilgan 5-sonli abonent shartnomasi loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston tuman YXKM

bosh yuriskonsul'ti



M.Utanov